

Mahallalarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yoʻnalishidagi tadbirlar belgilab olindi



Janubi-Gʻarbiy maxsus harbiy okrugi harbiy kengashining Surxondaryo viloyatida “Milliy armiyamiz yoshlar nigohida” shiori ostida mahallalarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yoʻnalishidagi tadbirlarni muvofiqlashtirish boʻyicha yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Termiz shahridagi 11506 harbiy qism madaniyat markazida boʻlib oʻtgan yigʻilishda viloyat hokimi - harbiy-maʼmuriy sektor rahbari Toʻra Bobolov, Janubi-gʻarbiy maxsus harbiy okrugi qoʻshinlari qoʻmindoni general-mayor Z.Iminov, harbiy kengash va harbiy-maʼmuriy sektor aʼzolari, viloyat hududida joylashgan barcha kuch tuzilmalari boshqarma boshliqlari, harbiy qism komandirlari va muassasa boshliqlari hamda faol yoshlar ishtirok etdi.